JOURNALFLEDU.COM
Foreign Languages in Uzbekistan

Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2026, vol. 12, No 5 (70), pp. 202–218
https://journalfledu.com
ISSN: 2181-8215 (online)

A DESCRIPTION OF THE MANUSCRIPT COPIES OF BADR CHACHI'S DIVAN HELD IN VARIOUS COUNTRIES

Fazliddin Davlatboy ugli Makhmadrajabov

Doctoral Student (PhD)
Tashkent State University of Oriental Studies
fmd94@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-8904-7491
https://doi.org/10.36078/1794379207

(received: August 25, 2026; revised: September 15, 2026; accepted: October 20, 2026)

Abstract. This article examines manuscript copies of Badr Chachi's divan preserved in the libraries and manuscript collections of Uzbekistan, Tajikistan, France, England, Russia, and Azerbaijan. Badr Chachi was a poet of the eighth century AH (fourteenth century CE) who, according to information provided in historical and literary biographical dictionaries (tazkiras), was born in Chach, present-day Tashkent, and spent the greater part of his life on the Indian subcontinent, at the court of the Tughluq sultans. His poetry enjoyed wide circulation within the literary milieu of India, was esteemed as a model by poets writing in Persian, and was likewise employed in the teaching of the Persian language; in this way his legacy transcended the level of a purely personal literary monument and became a significant factor in the transmission of the Persian poetic tradition. Nevertheless, the way manuscript copies of the poet's divan were disseminated across the world's libraries, along with their textual and material differences, has not hitherto been studied as a coherent whole. In an effort to fill this lacuna, at least in part, the present study draws on the catalogues, electronic databases, and, where possible, direct manuscript images available in the libraries of the six countries named above in order to identify the extant copies. Their material characteristics (size, script, place and date of transcription) and their textual features (number of verses, generic composition, and divergences from other copies) are analyzed. As a result of the study, a total of thirteen manuscript copies of the poet's divan were identified in these countries, of which three form part of composite collections while the remaining ten are preserved as independent manuscripts. The study used digital images of four of the identified copies, enabling a comparative analysis of the divan's textual composition and the proportion of its genres. The oldest copy was identified as manuscript No. 2697, held at the India Office Library in London, transcribed on the 26th of Muharram, A. H. 1077 (corresponding to 1666 CE); the most complete copy in terms of volume was identified as manuscript No. 90, held at the same library, comprising approximately 2,800 verses. Beyond illuminating the history of the dissemination of Badr Chachi's divan across Central Asia, Europe, and the Caucasus, this study's findings also lay the scholarly groundwork for preparing a critical edition of the text.

Keywords: Badr Chachi; divan; manuscript copy; textual criticism; description; critical text.

BADR CHOCHIY DEVONINING JAHONDAGI TURLI MAMLAKATLARDA SAQLANAYOTGAN QO‘LYOZMA NUSXALARI TAVSIFI

Fazliddin Davlatboy o‘g‘li Mahmadrajabov

Doktorant (PhD)
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston, Tojikiston, Fransiya, Angliya, Rossiya va Ozarbayjon kutubxonalari hamda qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan Badr Chochiy devonining qo‘lyozma nusxalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Hijriy-qamariy VIII (milodiy XIV) asrda yashagan Badr Chochiy tarixiy va adabiy tazkiralardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Chochda, ya’ni hozirgi Toshkentda tug‘ilgan. U umrining katta qismini Hindistonda, Tug‘luqiy sultonlar saroyida o‘tkazgan. Shoir asarlari Hindiston adabiy muhitida keng tarqalgan, forsiyzabon shoirlar uchun ijodiy namuna sifatida qadrlangan hamda fors tilini o‘qitishda qo‘llanilgan. Bu holat uning adabiy merosi fors she’riyati an’analarining davom etishi va yoyilishida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, shoir devonining dunyo kutubxonalaridagi qo‘lyozma nusxalari, ularning tarqalishi, matniy va kodikologik xususiyatlari hozirga qadar yaxlit holda o‘rganilmagan. Tadqiqotning maqsadi mazkur olti mamlakat fondlarida saqlanayotgan nusxalarni aniqlash, tavsiflash va qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda kutubxona kataloglari, elektron ma’lumotlar bazalari hamda qo‘lyozmalarning raqamli tasvirlaridan foydalanildi. Nusxalarning hajmi, xat turi, ko‘chirilgan joyi va sanasi, shuningdek, baytlar soni, janriy tarkibi hamda o‘zaro matniy farqlari tahlil qilindi. Natijada Badr Chochiy devonining jami 13 ta qo‘lyozma nusxasi aniqlandi. Ularning uchtasi majmualar tarkibida, o‘ntasi esa alohida qo‘lyozma holida saqlanmoqda. To‘rtta nusxaning raqamli tasvirlari bevosita o‘rganilib, matn tarkibi va janrlar nisbati qiyosiy tahlil qilindi. O‘rganilgan nusxalar orasida Londondagi Hindiston ishlari idorasi (India Office) kutubxonasining hijriy-qamariy 1077-yil 26-muharramda (milodiy 1666-yil) ko‘chirilgan 2697-raqamli qo‘lyozmasi eng qadimiy nusxa sifatida belgilandi. Shu kutubxonada saqlanayotgan, taxminan 2800 baytdan iborat 90-raqamli qo‘lyozma esa matn qamrovi jihatidan eng to‘liq nusxa sifatida baholandi. Tadqiqot natijalari Badr Chochiy devoni qo‘lyozmalarining Markaziy Osiyo, Yevropa va Kavkaz hududlaridagi fondlarda saqlanishi hamda tarqalishini o‘rganishga hissa qo‘shadi va devonning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash uchun manbaviy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Badr Chochiy; devon; qo‘lyozma nusxa; matnshunoslik; kodikologik tavsif; ilmiy-tanqidiy matn.

Kirish

Movarounnahr zaminida sharq adabiyoti xazinasining boyishiga xizmat qilgan ko‘plab adiblar yetishib chiqqan. Ularning aksariyati shu zaminda

qolib ijod qilgan bo‘lsa, ba’zilari turli sabablarga ko‘ra o‘z yurtlarini tark etib, boshqa o‘lkalarga borib ijod qilgan. Ana shunday shoirlardan biri Badr Chochiy hisoblanadi. Badr Chochiy hijriy-qamariy VIII asr, milodiy XIV asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri bo‘lib, uning taxallusidan ham ma’lum bo‘lganidek, u Choch, ya’ni bugungi Toshkent shahrida tug‘ilib voyaga yetgan. Uning tug‘ilib o‘sgan yillari, ta’lim olgan joyi va bolalik davri haqida bizgacha hech qanday aniq ma’lumot yetib kelmagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, u Hindiston yarim oroliga borib, Tug‘luqiy sultonlar saroyida faoliyat yuritgan va umrining qolgan qismini o‘sha yerda o‘tkazgan.

Badr Chochiyni Hindiston yarim orolida fors she’riyati taraqqiyotining yetakchi namoyandalaridan biri va bu jarayonning peshqadam shoirlaridan sanash mumkin. Uning ahamiyati faqat she’riyatining til va balog‘at xususiyatlari bilan cheklanmaydi, balki uning she’rlari ta’sirining kengligi hamda Hindiston yarim oroli madaniy hududida uzoq davom etgan adabiy faolligi ham uni fors adabiyoti tarixida alohida o‘ringa qo‘yadi. Badr Chochiy she’riyati Hindiston adabiy muhitlarida keng tarqalgan va e’tiborga sazovor bo‘lib, bu yurtning fors tilida ijod qiluvchi shoirlari uchun namuna sifatida qaralgan. Bundan tashqari, uning she’rlari fors tili va adabiyotini o‘qitish jarayonida ham qo‘llanilgan, shu tariqa uning merosi shaxsiy adabiy yodgorlik darajasidan chiqib, Hindiston yarim orolida fors she’riyati an’anasining uzatilishi va o‘rgatilishida ham muhim rol o‘ynagan. Uning yozma lirik merosining kengligi ham shu maqomni tasdiqlaydi.

Shunday maqomga ega bo‘lishiga qaramay, Badr Chochiy haqida bugungi kungacha amalga oshirilgan tadqiqotlar hanuz uning hayoti, she’riyati, qo‘lyozma merosi hamda devonining turli davrlarda qanday qabul qilingani haqida yaxlit va mukammal manzara taqdim eta olmagan. Xususan, shoir devonining qo‘lyozma nusxalari dunyo kutubxonalarida qay tarzda tarqalgani, ular orasidagi matniy va moddiy farqlar hamda ushbu nusxalarning zamonaviy nashrlarga qanday asos bo‘lgani masalasi hozirgacha yaxlit tarzda o‘rganilmagan.

Mazkur maqola aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga urinish maqsadida, O‘zbekiston, Tojikiston, Fransiya, Angliya, Rossiya va Ozarbayjon kutubxonalari hamda qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan Badr Chochiy devonining qo‘lyozma nusxalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ushbu mamlakatlardagi kataloglar, elektron ma’lumotlar bazalari va bevosita qo‘lyozma tasvirlariga murojaat qilingan holda, mazkur hududlarda saqlanayotgan nusxalar aniqlangan, ularning moddiy tavsifi, jumladan, hajmi, xat turi, ko‘chirilgan joyi va sanasi hamda matniy xususiyatlari, jumladan, baytlar soni, janriy tarkibi va boshqa nusxalar

bilan farqlari tahlil qilingan. Maqolada nusxalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoki mustaqillik darajasini belgilashga va baholashga harakat qilgan. Tadqiqot natijalari Badr Chochiy devonining Markaziy Osiyo, Yevropa va Kavkaz hududlaridagi tarqalish tarixini yoritishdan tashqari, kelgusida amalga oshiriladigan tanqidiy matn tayyorlash ishlariga ham ilmiy zamin yaratadi.

Asosiy qism

Ozarbayjon Respublikasining poytaxti Boku shahrida joylashgan “Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi kutubxonasi”da b-1940 – inventar raqam ostida Badr Chochiy devonining bir qo‘lyozma nusxasi saqlanadi [OQK, 1]. Ushbu nusxa hijriy-qamariy XII asrda (milodiy: XVIII asr) kitobat qilingan bo‘lib, 136 varaqdan iborat va o‘lchami 15x21 sm.

Ch. Ryoning “Britaniya muzeyida saqlanayotgan forsiy qo‘lyozma nusxalar katalogi”da, mazkur muzeyda Badr Chochiy devonining ikki qo‘lyozma nusxasi saqlanishi haqida ma’lumot keltirilgan. Birinchi nusxa 1858-raqam ostida saqlanadi. Bu nusxa asarlar majmuasi bo‘lib, unda Badr Chochiy devoni boshqa shoirlar qatorida, 92–112-varaqlarda to‘rtinchi o‘rinda kelgan. Ushbu nusxada keltirilgan shoir she’rlarining aksariyatini sulton Muhammad Tug‘luq madhiga bag‘ishlab yozilgan qasidalar tashkil qiladi. Devon oxirida zikr qilingan sana hijriy-qamariy 745-yil (milodiy 1345-yil) bo‘lib, bu shoirning mazkur baytidagi ishorasidan kelib chiqqan:

سال تاریخ عرب "دولت شه" ذوالقعده
کآسمان عقد گهرهای مرا داد نظام

Sāl-e tārix-e ‘arab-e doulat-e šah zulγaide
K-āsmān eγd-e gohar hā-ye marā dād nezām

“Koinot mening gaplarimni tartiblagan vaqt arab yil hisobi “davlat shah” zulqa’da oyi (hijriy qamariy o‘n birinchi oy) edi”. Bu yerda “davlat shah” abjad hisobi bo‘yicha 745 ga teng.

Mazkur bayt aksariyat devon qo‘lyozmalarida biroz boshqacha ko‘rinishda kelgan:

سال تاریخ عرب دولت شه بود به عقد
که آسمان عقد سخنهای مرا داد نظام

Sāl-e tārix-e ‘arab-e doulat-e šah bud be aγd
Ke āsmān eγd-e soxan hā-ye marā dād nezām

Ch. Ryo keltirgan ma’lumotga muvofiq mazkur nusxa hijriy-qamariy 1107-yilda (milodiy 1696-yil) kitobat qilingan [Rieu, 1881: 1031].

Ikkinchi nusxa 2048 – inventar raqam bilan saqlanadi va bu nusxada shoirning faqatgina ikki qasidasi keltirilgan. Birinchi qasida Xurramobod qal’asining ta’miriga (hijriy qamariy 744-yil/milodiy 1344-yil) bag‘ishlab yozilgan qasida. Ikkinchisi esa sulton Muhammad Tug‘luqqa Abbosiy xalifa tomonidan xil’at (ustki kiyim) va farmonning yetib kelgani (hijriy-qamariy 746-yil/milodiy 1345-yil) haqida yozilgan qasida bo‘lib, quyidagicha ifodalangan:

هم به تاریخی که مه از سال هفصد شد فزون
زین سفر ماه محرم سابق شعبان رسید.

Ham be tārixi ke mah az sāl-e hafsad šod fozun
Z-in safar māh-e Moharram sābeγ-e ša’bān rasid

Ushbu nusxa bir necha shoirning asarlar majmuasidan iborat. Badr Chochiyning bu ikki qasidasi qo‘lyozmada oxirgi bo‘lib, o‘n ikkinchi o‘rinda (242-varaqda) keltirilgan [Rieu, 1881: 1046].

Tojikistonlik olim F. Haydarov o‘zining “Badr Chochiy hayoti va ijodi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida taniqli sharqshunos H. Ettening 1903-yilda nashr qilingan “Hind devoni (India office) kutubxonasida saqlanayotgan forsiy qo‘lyozma nusxalar katalogi” birinchi jildiga ishora qilgan holda mazkur kutubxonada Badr Chochiy devonining bir nusxasi 1029-raqam ostida saqlanishi haqida ma’lumot bergan. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu nusxa qasida, qit’a, g‘azal va ruboiylardan iborat bo‘lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi [Ҳайдаров, 2002: 90]:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس و جان را رهبر است

Hamd ān soltān-e ālam rā ke ālamparvar ast
Ons-e u dar rāh-e imān ens-o jān rā rahbar ast

Angliyaning poytaxti London shahrida joylashgan Hindiston devoni kutubxonasida Badr Chochiy devoning ikkita qo‘lyozma nusxsi saqlanadi. Birinchi nusxa 1233-tartib raqam bilan 2697 – inventar raqam ostida va ikkinchi nusxa 1232-tartib raqam bilan 90 – inventar raqam ostida qayd qilingan [Ethe, 1903:712–713].

2697-raqamli nusxa. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1077-yilning 26-muharram (milodiy: 1666-yil, 29-iyul) kuni Muhammad Sharif ismli kotib

tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozma nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, 57 varaqdan iborat. O‘lchami 17x28 sm (11×6⅝ dyum) va har bir sahifada shoir she’rlari ikki ustun qilib 17 satrdan joylashtirilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه وحدت انس و جانرا رهبر است

Hamd ān soltān-e ālam rā ke ālamparvar ast
Ons-e u dar rāh-e vahdat ens-o jān rā rahbar ast

Mazkur qo‘lyozma Patna shahrida Navvob Lashkarxon uchun ko‘chirilgan bo‘lib, asosiy matn tarkibidagi so‘z va iboralar uchun hoshiyalarda izohlar bitilgan. Qo‘lyozma shoirning faqat qasidalaridan tashkil topgan.

90-raqamli nusxa. Mazkur nusxa nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, 96 varaqdan iborat. O‘lchami 13x22 sm (5×8⅞ dyum) va har bir sahifada shoir she’rlari ikki ustun qilib 15 satrdan ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma ham 2697-raqamli qo‘lyozma kabi quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه وحدت انس و جانرا رهبر است

Hamd ān soltān-e ālam rā ke ālamparvar ast
Ons-e u dar rāh-e vahdat ens-o jān rā rahbar ast

Mazkur qo‘lyozma asosan qasidalardan iborat bo‘lib, oxirgi qismida shoirning bir necha g‘azal, qit’a va ruboiylari ham keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Badr Chochiy devonining uchta nusxasi mavjud bo‘lib, birinchi nusxa 238-raqam ostida, ikkinchi nusxa 151-raqam ostida va uchinchi nusxa esa 1052-raqam ostida saqlanadi. 238-raqamli va 151-raqamli qo‘lyozmalar 1954-yil nashr qilingan “O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi sharq qo‘lyozmalari to‘plami”da qayd qilingan [CBP, 1954: 136–137]. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanuvchi uchinchi 1052-raqamli nusxa haqida A. Nosirov “Toshkent tarixida ba’zi siymolar” risolasida ma’lum qiladi [Носиров, 1983 : 22]. F. Haydarov ham “Badr Chochiyning hayoti va ijodi” nomli tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasida saqlanuvchi Badr Chochiy devonining bu uch nusxasi haqida ma’lumot beradi [Ҳайдаров, 2002: 90].

238-raqamli nusxa. Mazkur nusxada 17 ta shoirning she’rlari jamlangan bo‘lib, ular qatorida Badr Chochiyning she’rlari 12-o‘rinda berilgan. Bu nusxa Muhammad Husayn Bulg‘oriy tomonidan ko‘chirilgan. Kotib nusxa boshida, she’rlar matnidan oldin Badr Chochiy haqida muqaddima yozgan. Ammo u yerda shoirni Badr Jojarmiy bilan adashtirib, Badr Jojarmiy hayoti haqida yozgan. Davlatshoh Samarqandiyning tazkirasiga murojaat qilgan va undan iqtibos keltirgan. Lekin Davlatshoh Samarqandiy tazkirasini ko‘zdan kechirish natijasida tazkirada faqat Badri Jojarmiy haqida ma’lumot borligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, shoirni Xoja Bahouddin Sohibdevonning maddohi, Majduddin Hamgar Forsiyning shogirdi deb keltiradi.

Qo‘lyozma tarkibidagi Badr Chochiy devonining muqaddima qismi quyidagicha boshlanadi:

"پیرایش است به نگارش سمط لای متلالی که از غنایم فرست بهجت رخصت زمان در غواصی بحر اشعار ملك الكلام”

Mazmuni: “Bu yozma asar go‘yo yaltirab turgan marvarid tizmasidek bezak topgan bo‘lib, zamon fursati tuhfa qilgan quvonchli g‘animatlardan biridir. U she’riyat ummoniga sho‘ng‘igan “Malik ul-kalom”ning ijodidir.”

Bundan mazkur qo‘lyozma kotibi Muhammad Husayn Bulg‘oriyning laqabi “Malik ul-kalom” bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin.

Mazkur nusxaning asosiy matni quyidagi bayt bilan boshlanib, bu bayt shoir qit’alaridan birining matla’sidir:

ای بر عذار مه زده از شب طپانچه ها
پروین نما به خنده دهان تو از سها

Ey bar ezār-e mah zade az šab tapānče hā
Parvinnamā be xande dahān-e to az Sohā.

Mazkur qo‘lyozma devon oxirida quyidagi bayt kelib, nihoyalanadi:

دستم زکتاب چو فرو مانده شود
باشد که دعای خیر گویند مرا
آن جا که خطی نویسم خوانده شود

Dastam zi ketāb ču foru mānde šavad
Bāšad ke do’ā-ye xeyr guyand marā
Ān jā ke xatti navisam xānde šavad

Mazmuni: “Qo‘lim yozishdan to‘xtagan paytda, umid qilamanki, mening yozgan satrlarim o‘qilgan joyda menga duo qilinadi”.

Qo‘lyozmadagi ba’zi misralar tushib qolgan yoki o‘qishning imkoni bo‘lmagani uchun yozilmagan va kotib buning uchun bo‘sh joy qoldirib ketgan. Masalan, 127b sahifada bir misraning joyi bo‘sh qoldirib ketilgan va ushbu misra 151-raqamli nusxada (b. 59a) quyidagicha berilgan:

آن ناله ها که خواست ز دیوان رزق خویش

Ān nāle hā ke xāst zi divān rezγ-e xiš,

Yana ikki o‘rinda shunday holatni kuzatish mumkin. 141a sahifada “Koshif-ul asror”ga muvofiq “yek lahze dusti betavāni bedāštan” [Rompuriy, 1898: 371] va 143a sahifada “goftamaš, šifte-ye ru-ye to gaštast delam” [Rompuriy, 1898: 371] deb o‘qiladi.

Mazkur nusxaning140a sahifasida shoirning bir qasidasidan faqat to‘qqiz bayt keltiriladi. Matla’si quyidagicha:

وجه زر ار روی دارد چشم لولوبار من
قلب شد نقد روان زین روی در بازار من

Vajhe zar ar ruy dārad, čašm-e lo‘lubār-e man
γalb šod naγd-e ravān z-in ruy dar bāzār-e man.

Baytlar keltirilgandan so‘ng, mazkur nusxa kotibi bu yozilgan bir necha bayt qasidalardan birining matla’si bo‘lib, qasidadagi umumiy baytlar soni o‘ttiz to‘rtta ekanligini ta’kidlaydi (140a).

Bundan shuni aytish mumkinki, ushbu nusxa boshqa bir nusxadan tanlab ko‘chirilgan.

Mazkur nusxada shoirning she’rlaridan 37 qasida, 18 qit’a, 7 g‘azal, 13 tag‘azzul birga aralash holda kelgan va nusxa oxirida 10 ta ruboiy muayyan tartibda berilgan. Shoirning ruboiylari quyidagi bayt bilan boshlanadi:

ای گل به رخت زحمت خاری نرسد
وی جان ز می لبت خماری نرسد

Ey gol, be roxat zahmat-e xāri narasad
V-ey jān zi mayi labat xomāri narasad.

Mazkur qo‘lyozma o‘lchami 21,5x26,5sm va shoirning she’rlari 126b–144b sahifalarida berilgan. Qo‘lyozma juda chiroyli nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, har bir sahifada shoirning she’rlari ikki ustun qilib 20–21 baytdan berilgan. Nusxa hijriy-qamariy 1270-yil (milodiy 1854-yil) ko‘chirilgan.

151-raqamli nusxa. Ushbu nusxaning o‘lchami 16x22 sm bo‘lib, 74 varaqdan iborat. Qo‘lyozmada O‘rta Osiyoda ishlab chiqarilgan sarg‘ish rangli qog‘ozdan foydalanilgan. Qo‘lyozma shikasta nasta’liq xatida yozilgan va o‘qishga juda qiyin. Har bir sahifada shoirning she’rlari ikki ustun qilib 14–15 baytdan berilgan. Barcha sahifalarda hoshiya va satrlar orasida she’rlar tarkibidagi tushunishga qiyin bo‘lgan so‘zlar izohi kotib tomonidan berilgan. Mazkur nusxa taxminan XVIII asrda Hindistonda ko‘chirilgan. Qo‘lyozma tarkibidagi shoir devoni quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس و جن را رهبر است

Hamd ān soltān-e ālam rā ke ālamparvar ast
Ons-e u dar rāh-e imān ens-o jān rā rahbar ast

Devon quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

خداوندا مرا در علم منقول
زبان و دیده گویا گشت معقول

Xodāvand marā dar elm-e manγul
Zabān-o died guyā gašt ma’γul

Qo‘lyozma kollofonida quyidagicha matn keltirilgan:

"تمت تم کتاب میمون و مبارك تصنیف بدر چاچی که لقب او فخرالزمان است."

Tammat, tamma ketāb-e maymun va mobārak tasnif-e Badr-e Čāči, ke laγab-e u Faxrozzamān ast

“Asar Badr Chochiy tomonidan tasnif etilgan bo‘lib, uning faxriy unvoni “Faxr uz-zamon”dir. Kitob baxtli va muborak tarzda tamom bo‘ldi.”

1052-raqamli nusxa. Ushbu nusxaning o‘lchami 13x22 sm bo‘lib, 58 (1a-58b) varaqdan iborat. Lekin kutubxona mas’ullari bu nusxaning hajmini 80 varaq deb aytganlar. Qo‘lyozma qog‘ozi sarg‘ish rangda bo‘lib, o‘qishga juda oson nasta’liq xatida yozilgan. Har bir sahifada shoirning she’rlari ikki ustun qilib 17 baytdan joylangan. Ba’zi sahifalarda hoshiya va satrlar

orasida kotib tomonidan she’rlar tarkibidagi tushunishga qiyin bo‘lgan so‘zlar izohi berilgan. 1a va 9a sahifalarda ushbu qo‘lyozma saqlanayotgan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondining muhri mavjud. Shuningdek, 3a, 11a, 19a, 35a, 51a sahifalarda doira shaklidagi muhr tasvirini ko‘rishingiz mumkin. Lekin muhr ichidagi yozuv xiraligi sababli uni o‘qishning imkoni bo‘lmadi. Mazkur nusxada Badr Chochiyning faqat qasida va qit’alari berilgan bo‘lib, ular muayyan tartibda emas, balki aralash holda ko‘chirilgan. Qo‘lyozma quyidagi bayt bilan boshlanadi:

زردۀ شمشادوش سرکش مهتن عیان
آبخور او به هند تاختنش تا خطا

Zarde-ye šamšādvaš sarkaš-e mahtan ayān
Ābxor-e u be Hend tāxtanaš tā Xitā.

Mazkur nusxadagi birinchi qit’aning matla’si quyidagicha:

ای محمدفر و حیدردل و عباس شکوه
آبنین آب و موید ید و جمشید لوا

Ey Mohammadfar-o Heydardel-o Abbāssokuh
Ābtināb-e movayyadyad-o Jamšidlavā.

Qo‘lyozma ko‘chirilgan sana ma’lum emas. Ammo qog‘ozning turi va kitobat tarzidan XVIII asr oxirida ko‘chirilganligini taxmin qilish mumkin.

Fransiyaning poytaxti Parij shahrida joylashgan Parij milliy kutubxonasi forsiy qo‘lyozma nusxalar majmuasida Badr Chochiy devonining to‘liq bo‘lmagan bir nusxasi suppl. 760 — inventar raqam ostida saqlanadi [Blochet, 1905–1934: 205]. Zabihullo Safo ham “Eronda adabiyot tarixi” kitobida bu nusxa haqida xabar bergan. Unga ko‘ra, nusxada shoir she’rlari 1800 baytdan ko‘proqdir [Safo, 1346: 855–856].

M. Qodirova “Badr Chochiy davri va hayotiga oid” nomli maqolada shoir devonining bir nusxasi Sankt-Peterburg davlat universiteti sharqshunoslik fakulteti qo‘lyozmalar fondida 1111-raqam ostida saqlanishini ta’kidlaydi [Қодирова, 1966: 69–71]. Ammo mazkur nusxa haqida ma’lumot bermaydi.

F. Haydarovning “Badr Chochiyning hayoti va ijodi” nomli tadqiqot ishida Badr Chochiy devonining bir nusxasi 163-raqam ostida Tojikiston Respublikasi FA Qo‘lyozma asarlar instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanishi haqida ma’lumot berilgan. Hozirda ushbu nusxa bizda mavjud

emas va F. Haydarovning kitobida berilganlar asosida nusxa haqida ma’lumot beramiz [Ҳайдаров, 2002: 97]. Tadqiqotchi ushbu nusxa tavsifida shoir devonidan misollar keltirishda tojik-kirill yozuvudan foydalangan. Biz ham faqat shu nusxa tavsifida mualliflikga ehtirom yuzasidan baytlardan namunalarni aynan keltiramiz.

Unga ko‘ra, mazkur nusxa haqida ma’lumot beruvchi katalog mualliflari qo‘lyozma shakli va holati haqida nusxaning bizgacha yetib kelgan qismi quyidagi bayt bilan boshlanadi, deb ma’lumot berganlar:

Chu badrson talabi jomeoni amvoland,
Chu muftiyon talabi mushrifoni zar dorand.

Qo‘lyozma juda chiroyli nasta’liq xatida yozilgan. Har bir sahifasida ikki ustun qilib shoir she’rlari 13–15 baytdan joylangan. Qo‘lyozma qog‘ozi sifatli va jilodor bo‘lib, sarg‘ish rangga tortib ketadi. Nusxada qasida nomlari binafsha rangga tortuvchi qizil rangda yozilgan.

Ushbu nusxaning kamchiligi shundaki, qo‘lyozmaning boshi va oxiri bizgacha yetib kelmagan. Qog‘oz turi va qo‘lyozma shaklidan nusxaning XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ko‘chirilganligini taxmin qilish mumkin. Mazkur qo‘lyozmaning 54, 56, 63, 70, 74, 80, 85, 92-sahifalarida muhr mavjud. Unda xudovand madhiga bag‘ishlangan so‘zlar bitilgan bo‘lib, 1274/1858 sana qayd qilingan. Shuningdek, 82b, 83a sahifalarda yana boshqa bir juda ham kichkina o‘lchamdagi muhr mavjud. Qo‘lyozma 47 varoqdan (52a-99b) iborat va uning o‘lchami 12x21,5 sm. Muqovasi qalin kartondan tayyorlangan [КВР, 1968: 163].

Mazkur qo‘lyozma F. Haydarov tominidan tadqiq etilgan va katalogda kamchilik mavjudligi aniqlangan. Unga ko‘ra, katalog mualliflari ushbu qo‘lyozmani tanishtirishda, kotib tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoni e’tibordan chetda qoldirganlar. Mazkur nusxada Badr Chochiyning she’rlari 52a sahifadan, qit’adan boshlanadi va uning birinchi bayti quyidagicha:

Chu badrson talabi jomeoni amvoland,
Chu muftiyon talabi mushrifoni zar dorand.

Shoir she’rlari 91b sahifagacha davom etadi va oxirgi bayti quyidagicha:

Harchand obi teg‘ sari ko‘hro guzasht
Xasmi siyohro‘yi turo to ba gardan ast.

Bu baytdan so‘ng 92a sahifadan to 94b sahifagacha boshqa bir shoirning she’rlari berilgan. Badrning she’rlari yana 95a sahifadan boshlanib, birinchi bayti quyidagicha:

Bar lola anbar bexta, bar subhidam shab rexta
Sar bar zamin ovexta az mohi nav sad axtarash.

Shoirning she’rlari yana 99b sahifagacha davom etib, quyidagi bayt bilan tugaydi:

Uf bar on roside, ki zeri haziz
Raqame dod bu’di ab’adro.

Katalog mualliflari qo‘lyozmada 100a sahifadan to 104b sahifagacha boshqa bir shoir she’rlari berilganini ham e’tibordan chetda qoldirganlar. Badrning she’rlari yana qo‘lyozmaning 105a sahifasidan boshlanadi. Ushbu sahifa shoir qasidalaridan birining maqta’asi bo‘lgan quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Turo bodo ba bazmi mulk jomi xushdili bar kaf
Kulohi saltanat bar sar qaboi maxfirat dar bar.

Shoirning bu qismdagi she’rlari 111b sahifagacha davom etib, to‘laligicha qasidalardan tashkil topgan va quyidagi bayt bilan tugaydi:

Ro‘yi mahro nadihad nur zi oinai xesh
Gar ba xurshed kuni arz ruxi zeboro.

Ushbu bayt shoir qasidalaridan birining uchinchi bayti bo‘lib, jami o‘ttiz uch baytdan iborat va qolgan qismi tushib qolgan.

Shu tariqa, F. Haydarovning fikriga ko‘ra, shoirning she’rlari mazkur nusxada 47 varaqdan emas, balki 51 varaqdan iborat bo‘lib, qo‘lyozmaning quyidagi sahifalarida kelgan: 52a–91b, 95a–99b, 105a–111b [Ҳайдаров, 2002: 98–99]. Lekin F. Haydarov ham Badri Chochiyning she’rlari berilgan varaqlar sonini hisoblashda xatoga yo‘l qo‘ygan. Fikrimizcha, mazkur nusxada shoirning she’rlari 51 varaqda emas, balki 52 varaqda (104 sahifada) berilgan.

Qo‘lyozmada shoirning faqat qasida va qit’alari keltirilgan. Mazkur nusxada shoirning 55 qasidasi berilgan bo‘lib, ulardan 23 tasi kotib tomonidan nomlangan. Yoki boshqa bir xuddi shunday nusxadan, ya’ni o‘sha nomlangan qasidalar mavjud nusxadan ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin.

Qasidalarning nomi binafsha rangga tortuvchi qizil rang bilan yozilgan bo‘lib, qora siyoh bilan yozilgan qasidaning asosiy matnidan yaqqol ajralib turadi. F. Haydarov o‘z asarida mazkur nusxadagi 23 qasida nomlarini va ularning birinchi baytini o‘z navbatida tartib bilan keltiradi.

A. Shprenger tomonidan tuzilgan “Aud qirolligi kutubxonalarida saqlanuvchi arabiy, forsiy va hindiy qo‘lyozma nusxalar katalogi”da berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 152 — inventar raqam ostida Badr Chochiy devonining bir qo‘lyzoma nusxasi mavjud [Sprenger, 1854: 367–368]. Katalogda shoir va mazkur nusxa haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Unga ko‘ra, “Safinai Xushgo‘” tazkirasida muallif shoirni Faxriddin deb atagan va hijriy-qamariy VII asr shoiri Badr Jojarmiy bilan adashtirgan.

Ushbu nusxa shoirning asosan qasidalaridan tashkil topgan va asar so‘ngida bir necha qit’a ham keltirilgan. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

حمد آن سلطان عالم را که عالم پرور است
انس او در راه ایمان انس و جن را رهبر است

Hamd ān soltān-e ālam rā ke ālamparvar ast
Ons-e u dar rāh-e imān ens-o jān rā rahbar ast

A. Shprenger katalogda shoir o‘z yurti Toshkentni tark etib Hindistonga kelgandan so‘ng Sulton Muhammad Tug‘luq saroyida umrining ko‘p qismini yashagani va shoh madhida ko‘plab devonlar yaratganini keltiradi.

Izoh: Bu katalog Britaniya Hindiston hukumati buyurtmasi bilan tuzilgan. Unda Aud qirolligi kutubxonalarida mavjud kitoblar sharqshunos A. Shprenger tomonidan kataloglashtirilgan. Katalogda qayd qilingan kitoblarning keyingi taqdiri haqida aniq ma’lumotlar mavjud emasligi sabab katalogda ko‘rsatilgan 152-raqamli Badri Chochiy devoni qo‘lyozmasining hozirda qayerda saqlanishi haqida ma’lumot bera olmaymiz.

1-jadval

Qo‘lyozma nusxalarning saqlanish joylari va bibliografik tavsifi

Qo‘lyozma nusxalar					
T/r	**Shahar**	**Kutubxona**	**Inventar raqami**	**Kitobat sanasi**	**Sahifasi**
Ozarbayjon					
	Boku	Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi kutubxonasi	b-1940	XVIII asr	136 varaq

Angliya				
London	Britaniya muzeyi	1858/4	1696-yil	21 varaq
London	Britaniya muzeyi	2048/12		1 varaq
London	Hindiston devoni (India office) kutubxonasi	1029		
London	Hindiston devoni (India office) kutubxonasi	2697	29.07.1666	57 varaq (17 satr)
London	Hindiston devoni (India office) kutubxonasi	90		96 varaq (15 satr)
O‘zbekiston				
Toshkent	Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti	238/12	1854-yil	19 varaq (20–21 satr)
Toshkent	Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti	151	XVIII asrda	74 varaq (14–15 satr)
Toshkent	Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti	1052	XVIII asr oxiri	58 varaq (17 satr)
Fransiya				
Parij	Parij milliy kutubxonasi	suppl. 760		1800 bayt
Rossiya				
Sankt-Peterburg	Sankt-Peterburg davlat universiteti	1111		
Tojikiston				
Dushanbe	FA Qo‘lyozma asarlar instituti	163	XVIII-XIX asrlar	52 varaq (13–15 satr)
	Aud qirolligi kutubxonasi	152		

Xulosa

Mazkur tadqiqotda Badr Chochiy devonining O‘zbekiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ozarbayjon, Rossiya va Tojikiston hududlaridagi kutubxonalar hamda qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil

qilindi. Tadqiqot natijasida mazkur davlatlarda shoir devonining jami 13 ta qo‘lyozma nusxasi mavjudligi aniqlandi (1-jadvalga qarang). Shulardan bitta nusxa A. Shprenger tomonidan tuzilgan “Aud qirolligi kutubxonalarida saqlanuvchi arabiy, forsiy va hindiy qo‘lyozma nusxalar katalogi”da qayd etilgan bo‘lsa-da, uning hozirgi saqlanish joyi aniqlanmadi. Mazkur qo‘lyozmalarning uchtasida shoir devoni majmua tarkibida va qolgan o‘nta qo‘lyozma faqat Badr Chochiy devonidan tarkib topgan.

Aniqlangan nusxalardan O‘zbekiston va Fransiya kutubxonalarida saqlanayotgan to‘rttasining elektron tasviri bizda mavjud bo‘lib, ulardan tadqiqot jarayonida bevosita foydalanildi hamda devon matnining tarkibi, janrlar nisbati va ayrim baytlarning nusxalar orasidagi farqi qiyosiy tahlil qilindi.

Mavjud qo‘lyozmalar orasida eng qadimiysi London shahridagi Hindiston devoni kutubxonasida (India Office Library) saqlanuvchi № 2697 raqamli qo‘lyozma ekanligi belgilandi. Ushbu nusxa hijriy-qamariy 1077-yil 26-muharram kuni, ya’ni milodiy 1666-yil 29-iyulda, Patna shahrida ko‘chirilgan bo‘lib, kitobat sanasi aniq ko‘rsatilgan kam sonli nusxalardan biri hisoblanadi.

Shoir devonining hajm jihatidan eng mukammal nusxasi ham aynan shu kutubxonada saqlanuvchi 90-inventar raqamli qo‘lyozma bo‘lib, unda taxminan 2800 bayt jamlangan. Mazkur nusxadagi devon matni va undagi janriy tarkib alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Aniqlangan qo‘lyozma nusxalar Badr Chochiy devonining keng tarqalganligini, turli davr va hududlarda ko‘chirilganini ko‘rsatadi hamda shoir ijodining kelgusida tanqidiy matnini tayyorlash uchun muhim manbashunoslik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Носиров А., МунировҚ., Ирисов А. Тошкент тарихида баъзи сиймолар / масъул муҳаррир М. М. Хайруллаев. — Тошкент: Фан, 1983. — 54 б.

Қодирова М. Бадри Чочий даври ва ҳаётига оид // Ўзбек тили ва адабиёти. — 1966. — № 3. — Б. 69–71.

Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР / под ред. А. А. Семенова. — Т. II. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1954. — С. 136–137.

Каталог восточных рукописей Академии наук Таджикской ССР. — Т. II. — Душанбе: Дониш, 1968. — 344 с.

Ҳайдаров Ф. Рӯзгор ва осори Бадри Чочӣ. — Душанбе: Адиб, 2002. — 138 с.

1. رامپوری، غیاث‌الدین محمد. شرح قصاید بدر چاچ معروف به کاشف الاسرار. — لکهنو: منشی نول کشور، ۱۸۹۸. — ۴۱۰ ص.
Rompuriy G‘iyosiddin Muhammad. Sharhi qasoidi Badri Choch, mashhur ba Koshif ul-Asror. — Laknau: Munshiy Naval Kishur, 1898. — 410 b.

2. صفا، ذبیح‌الله. تاریخ ادبیات در ایران. — جلد ۳، بخش دوم. — تهران: انتشارات دانشگاه تهران.
Safo Zabihulloh. Tarixi adabiyot dar Eron. — J. 3, baxshi duvvum. — Tehron: Intishoroti Donishgohi Tehron.

Каталог персидских рукописей / гл. ред. Дж. В. Каграманов. — Т. I. — Баку: Орнак, 1994. — 318 с.

Rieu Ch. Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum. — Vol. II. — London: British Museum, 1881. — VII p., P. 433–877.

Ethé H. Catalogue of Persian Manuscripts in the Library of the India Office. — Vol. I. — Oxford: Printed for the India Office by H. Hart, 1903. — URL: https://archive.org/details/catalogueofpersi01greauoft (murojaat sanasi: 05.10.2026).

Blochet E. Catalogue des manuscrits persans de la Bibliothèque nationale. — T. III: Nos 1161–2017. — Paris: Réunion des Bibliothèques nationales, 1928. — III, 490 p.

Sprenger A. A Catalogue of the Arabic, Persian and Hindu’sta’ny Manuscripts of the Libraries of the King of Oudh. — Vol. I. — Calcutta: J. Thomas, 1854. — 645 p.

References

Munirov, Q., Irisov, A., & Nosirov, A. (1983). *Toshkent tarixida ba’zi siymolar* (Some figures in the history of Tashkent), Tashkent, Fan.

Qodirova, M. (1966). *O‘zbek tili va adabiyoti*, No. 3, 69–71.

Semenov, A. A. (Ed.). (1954). *Sobranie vostochnykh rukopisei Akademii nauk Uzbekskoi SSR* (Collection of Oriental manuscripts of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR), 2, Tashkent, Izdatel’stvo AN UzSSR, 136–137.

Katalog vostochnykh rukopisei Akademii nauk Tadzhikskoi SSR (Catalogue of Oriental manuscripts of the Academy of Sciences of the Tajik SSR). (1968). 2, Dushanbe, Donish.

Haydarov, F. (2002). *Ruzgor va osori Badri Chochi* (The life and works of Badr Chachi), Dushanbe, Adib.

Rampuri, G. M. (1898). *Commentary on the qasidas of Badr Chach, known as Kashif al-Asrar*, Lucknow, Munshi Nawal Kishore.

Safa, Z. (n.d.). *History of literature in Iran* (Vol. 3, Part 2), Tehran, University of Tehran Press.

Kagramanov, Dzh. V. (Ed.). (1994). *Katalog persidskikh rukopisei* (Catalogue of Persian manuscripts), 1, Baku, Ornak.

Rieu, Ch. (1881). *Catalogue of the Persian manuscripts in the British Museum*, 2, London, British Museum, 433–877.

Ethé, H. (1903). *Catalogue of Persian manuscripts in the library of the India Office*, 1, Oxford, Printed for the India Office by H. Hart. https://archive.org/details/catalogueofpersi01greauoft

Blochet, E. (1928). *Catalogue des manuscrits persans de la Bibliothèque nationale* (Catalogue of Persian manuscripts of the National Library), 3, Nos. 1161–2017, Paris, Réunion des Bibliothèques nationales.

Sprenger, A. (1854). *A catalogue of the Arabic, Persian and Hindu'sta'ny manuscripts of the libraries of the King of Oudh*, 1, Calcutta, J. Thomas